

OILADA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Javlonova Maftuna Alisher qizi, talaba
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali**

Annotatsiya: Maqolada oilada farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilib, farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta‘sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma‘naviy kasal” insonlar shakllanadi.

Kalit so‘zlar: ota-onaning muomalasi, qo‘pol-dag‘al so‘zlar, oiladagi nosog‘lom muhit, “ma‘naviy kasal”, odobli bo‘lib ulg‘ayish, mahalla-kuy.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma‘lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo‘lib, har tomonlama sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma‘sul bo‘lgan g‘oyat muhim tarbiya o‘chog‘idir.

O‘zbek oilasi a‘zolarining barchasini savodxon, ma‘lumotli deb atasak, xato qilmagan bo‘lamiz, ana shu imkoniyatlar ta‘sirida o‘g‘il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo‘lib voyaga etmoqdalar.

Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma‘naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o‘zlari ham tarbiyaning o‘ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma‘nosiga doir eng yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lib turishlari kerak bo‘ladi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon etishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g'oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish

mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan.

Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar.

Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.

Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab

bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

- odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalari xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

- farzandingizga o‘zгалar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zгалarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning xalq milliy ruhiyatining negizi bo‘lmish oilaviy munosabatlarda aks etishini tadqiq etish muhim masaladir. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murrakkab va ancha teran mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga er-xotin o‘rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Psixologik amaliyotda eng ko‘p to‘qnash kelish mumkin bo‘lgan masalalardan biri – ota-onalarning voyaga yetgan farzandlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga doir muammolardir. Odatda bunday muammo bilan ko‘pincha ona murojaat qiladi, biroq ota-ona, ba’zan otaning o‘zi yordam so‘raydigan holatlar ham uchraydi. Ota-onalarning farzandlari borasidagi munosabatlarini shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin (albatta, mazkur shikoyatlar bir-birini inkor qiladigan emas, balki taqozo etadigan muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi):

1. Farzandlar bilan muloqotning yo‘qligi: ularning qanday yashayotganlari, qiziqishlari, intilishlarini bilmaslik, bolalari bilan «ochilib» gaplashmaslik, ota (ona) sifatida begonaligini his etish va h.k. Bunday muammolarga ega mijozlar uchun farzandlari to‘g‘risidagi quyidagi fikr-mulohazalar xos bo‘ladi: «Men uni umuman tushunmayman», «Men uning qaerlarda bo‘lishi, do‘stlari xususida hech narsa bilmayman», «U menga o‘zi haqida hech narsa demaydi, menga ishonchsizlik bilan qaraydi» va sh.k.

2. Farzandlarning ota-onaga nisbatan hurmatsizlarcha, keskin munosabati; arzimagan sabablar bilan doimiy nizoga borishi, janjallashishi. Bunday holga «U doim menga qo‘pollik qiladi, men bilan hisoblashmaydi, menga biror narsada ko‘maklashmaydi, yordam bermaydi» qabilidagi shikoyatlar xosdir.

Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarish va ma‘naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o‘z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a‘zosini tarbiyalash hamdir. Shuning uchun oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish bilan oilada yuz berishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramova F.A. Oilada ma‘naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. - T.: «Nixol Print», 2016. -42-b.
2. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. - T.: : «Shams ASA», 2014. -185-b.
3. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. – T.: «Shams ASA», 2006. -90-b. 7. Yo‘ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta’siri. – T., 2004. -99-b.
4. Umida IBAIDULLAYEVA, Rustam ABDURASULOV The influence of the level of conflict of adolescents on their psychological level/
5. R Abdurasulov, U Ibaydullayeva METHODS OF OVERCOMING INTERNAL CONFLICTS BETWEEN TEENAGERS/Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
6. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). Ota-ona va farzandlar ortasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollor, 1(1), 471–473. Retrieved from
7. Qarshiboyeva, G.A., Ibaydullayeva, U., Oila psixologiyasi// O‘quv qo‘llanma/ 2022, b.256
8. Ibaydullayeva, U., OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI NIZONING PSIXOLOGIK OMILLARI//Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali.

9. Абдурасулов Рустам Абдураимович Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, The influence of motivation on the formation of personality traits//Journal of Physical Education and Sport (JPES)
10. Ibaydullaeva Umida, he Effect of the Level of Conflict on the Characteristics of Adolescents//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology
11. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Низолашув даражасининг характерни шаклланишидаги аҳамияти. // Замонавий тадқиқотлар, инновацияларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари:ечимлар ва истиқболлар Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами
12. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Ўсмирлар характер хусусиятларига низонинг таъсири. // Ишлаб чиқаришнинг техник, муҳандислик ва технологик муаммолари инновацион ечимлари // Халқаро миқёсидаги илмий-техник анжуман материаллари // Жиззах Политехника Институти //2021/10//267-270 б.
13. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Рол отношения родителей к ребенку при разрешении конфликтов//журнал Вестник интегративной психологии/2021/10//132-135ст.
14. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Низоли вазиятларда ўсмирларнинг хулқ-атвор типлари хусусиятлари//журнал Психология//БухДу/2021/10//95-100б
15. Ibaydullaeva Umida,Peculiarities of providing psychological assistance in crisis situations between parents and children//International Journal For Innovative Engineering and Management Research//2021/2//236-238р
16. Абдурасулов Рустам Абдураимович, Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Ўсмирлар тарбиясида оиланинг ўрни//“Ўзбекистонда оила масалаларини илмий-амалий тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлари” мавзусидаги ONLINE Республика илмий-амалий конференцияси//2020/11//104-108б
17. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна,Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш//Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ‘БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б
18. Абдурасулов Рустам Абдураимович, Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, //Ўсмирлик даврида шахс шаклланишига таъсир этувчи омиллар//Хотин-қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари // Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари//2019/5//167-169б
19. Ibaydullaev T. G. PHILOSOPHICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF THE CLASSIFICATION AND GENESIS OF CLOTHES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 754-757.

20. Ibaydullayev T. G. ETHNIC CLOTHS AS A MAIN FACTOR OF NATIONAL CULTURAL DEVELOPMENT //EurasiaScience. – 2019. – С. 119-120.
21. Ибайдуллаев Т. ГАРМОНИЯ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ШВЕЙНОЙ КУЛЬТУРЫ И СОВРЕМЕННОСТИ // Научно-просветительский журнал "Наставник". – 2021. – № 1. – С. 92-95.
22. Ibaydullaev T. A study of national clothes and games as an individual part of cultural heritage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 6. – С. 13-15.
23. Ибайдуллаев Т. КЛАССИФИКАЦИЯ УЗБЕКСКОГО ТРАДИЦИОННОГО КОСТЮМА (В РАЗРЕЗЕ АНАЛИЗА ЖЕНСКИХ КОСТЮМОВ) //InterConf. – 2021.
24. Ибайдуллаев Т. Г. Философско-культурные основы древнего казахского и киргизского костюма //Онтологические и социокультурные основания альтернативного проекта глобализации.—Екатеринбург, 2021. – 2021. – С. 118-121.
25. Ибайдуллаев Т. Г. УЗБЕКСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ ОДЕЖДА В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ //Культура в евразийском пространстве: традиции и новации. – 2020. – С. 56-62.
26. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists. – 2020. – Т. 1. – №. 10 (79). – С. 48-49.
27. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 459-464.
28. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
29. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
30. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR. – 2021. – С. 304.
31. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 651-656.
32. Каршибоева Г. А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков: Каршибоева Гульноза Абдукодировна, Джизакский государственный педагогический институт-старший преподаватель //Образование и инновационные исследования

международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 2-Махсус сон. – С. 298-305.

33. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.

34. Каршибаева Г. А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.

35. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 54-59.

36. Каршибоева Г.А.. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. – 2021. – №. 22. – С. 84-89.

37. Каршибаева Г. А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. – 2021. – С. 90-96.

38. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.

39. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)

40. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

41. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

42. Каршибаева Г.А., Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.

43. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқнинг олдини олишда амалга оширила-диган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.

44. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.

45. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
46. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқни пайдо бўлишида ижтимоий функциялар бузилишининг психологик ҳолатлари. *Psixologiya ilmiy jurnali/ Вухоро. №4, 2020 101-104 бб*
47. Majidov, J. B., Sobirov, A. B., Karshiboeva, D. B., & Mamarayimova, R. U. (2022). Factors Of Formation Of The Scientific Worldview Of The Person And Their Interrelation. *PORTA LINGUARUM, 37, 65-70.*